




## ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



### THE SIGNIFICANCE OF INTERNATIONAL-LEGAL DOCUMENTS IN ENSURING THE INDEPENDENCE OF LOCAL COUNCILS AS A POLITICAL INSTITUTION (IN THE EXAMPLE OF THE EUROPEAN CHARTER OF LOCAL SELF-GOVERNMENT)

**Sanjarbek Abdurakhmanov**

doctoral student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [sanjarbekabduraxmanov91@gmail.com](mailto:sanjarbekabduraxmanov91@gmail.com)

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** international legal document, political institution, local self-government, "European Charter of Local Self-Government", administrative control, principle, national legislation, constitution, law, judicial protection, organizational structure, administrative tools.

**Received:** 04.10.24

**Accepted:** 06.10.24

**Published:** 08.10.24

**Abstract:** Summary of the work: The "European Charter of Local Self-Government" is considered as an international legal document in ensuring the independence of local councils as a political institution, and the importance of this international legal document in increasing the effectiveness of local councils in Uzbekistan is analyzed.

Brief novelty of the work: The organizational structure and administrative tools of local self-government bodies should be in accordance with the tasks they perform, the role of administrative control over the activities of local self-government bodies, local-financial resources of self-governing bodies, national legislation of political mechanisms, such as the right of local self-government bodies to freely exercise their powers and to have the right to judicial protection in order to ensure compliance with the principles of local self-government enshrined in the constitution or national law it is proposed to be defined.

Short results: The implementation of the "European Charter of Local Self-Government" as an international legal document into the national legislation is substantiated.

Short summary: It has been scientifically and practically proven that the political, administrative and financial independence of local councils can be guaranteed by ratifying

the "European Charter of Local Self-Government" as an international legal document.

## SIYOSIY INSTITUT SIFATIDA MAHALLIY KENGASHLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA XALQARO-HUQUQIY HUIJJATLARNING AHAMIYATI ("MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISH YEVROPA XARTIYASI" MISOLIDA)

*Sanjarbek Abduraxmanov*

*tayanch doktorant*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [sanjarbekabduraxmanov91@gmail.com](mailto:sanjarbekabduraxmanov91@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** xalqaro-huquqiy hujjat, siyosiy institut, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish Yevropa xartiyasi", ma'muriy kontrol, prinsip, milliy qonunchilik, konstitutsiya, qonun, sud tomonidan himoyalanish, tashkiliy tuzilish, ma'muriy vositalar.

**Annotatsiya:** Ishning qisqacha mazmuni: siyosiy institut sifatida mahalliy kengashlar mustaqilligini ta'minlashda xalqaro-huquqiy hujjat sifatida "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish Yevropa xartiyasi" ko'rib chiqilib, ushbu xalqaro-huquqiy hujjatning O'zbekistonda mahalliy kengashlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan.

Ishning qisqa yangiligi: mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining tashkiliy tuzilishi va ma'muriy vositalari ular amalga oshiradigan vazifalarga muvofiq bo'lishi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati ustidan ma'muriy kontrolning o'rni, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari molivaviy manbalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'z vakolatlarini erkin amalga oshirish va konstitutsiya yoki milliy qonunchilikda mustahkamlangan mahalliy o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga rioya etilishini ta'minlash yuzasidan sud tomonidan himoyalanish huquqiga ega bo'lishi kabi siyosiy mexanizmlarning milliy qonunchilikda belgilanishi taklif qilinadi.

Qisqa natijalar: xalqaro-huquqiy hujjat sifatida "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish Yevropa xartiyasi"ni milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi asoslantirilgan.

Qisqa xulosa: xalqaro-huquqiy hujjat sifatida "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish Yevropa xartiyasi"ni ratifikatsiya qilish orqali mahalliy kengashlarning siyosiy, ma'muriy va molivaviy mustaqilligini kafolatlash mumkinligi ilmiy hamda amaliy isbotlangan.

## ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ НЕЗАВИСИМОСТИ МЕСТНЫХ СОВЕТОВ КАК ПОЛИТИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА (НА ПРИМЕРЕ ЕВРОПЕЙСКОЙ ХАРТИИ МЕСТНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ)

**Санжарбек Абдурахманов**

докторант

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [sanjarbekabduraxmanov91@gmail.com](mailto:sanjarbekabduraxmanov91@gmail.com)

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** международно-правовой документ, политический институт, местное самоуправление, «Европейская хартия местного самоуправления», административный контроль, принцип, национальное законодательство, конституция, право, судебная защита, организационная структура, административные инструменты.

**Аннотация:** Краткое содержание работы: «Европейская хартия местного самоуправления» рассматривается как международно-правовой документ в обеспечении независимости местных советов как политического института, а также значение этого международно-правового документа анализируется повышении эффективности деятельности местных советов в Узбекистан.

Краткая новизна работы: организационная структура и административный инструментарий органов местного самоуправления должны соответствовать выполняемым ими задачам, роли административного контроля за деятельностью органов местного самоуправления, местными финансовыми ресурсами самоуправления. органы управления, национальное законодательство о политических механизмах, таких как право органов местного самоуправления свободно осуществлять свои полномочия и право на судебную защиту в целях обеспечения соблюдения принципов местного самоуправления, закрепленных в конституции или национальным законодательством предлагается дать определение.

Краткие результаты: Обосновано имплементация «Европейской хартии местного самоуправления» как международно-правового документа в национальное законодательство.

Краткое резюме: Научно и практически доказано, что политическая, административная и финансовая независимость местных советов может быть гарантирована путем ратификации «Европейской Хартии местного

## KIRISH

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldag'i "Mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-28-son Farmoniga ko'ra, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modelini to'liq amalga oshirish, mahalliy Kengashlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish, mahalliy davlat hokimiyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yish, shuningdek "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlar mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning haqiqiy "ovoziga" aylantirish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. [1] Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagi fikrlarni ta'kidlab edi: "Hisobotlarga e'tibor bersak, mahalliy kengashlar faoliyatida go'yoki ijobiy o'zgarishlar yuz berayotgandek tuyuladi, lekin ular faqat raqamlarda aks etmoqda, xolos. Bizga raqamlar emas, aniq natija kerak. Qachonki, hududlardagi vaziyat ijobiy tomonga o'zgarsa, budget ijrosi to'liq ta'minlansa, jinoyatchilik kamaysa, yangi ish o'rnlari yaratilsa, eng muhimi, xalqimizning turmush darajasi yaxshilansa, mahalliy kengashlar faoliyatiga ijobiy baho bersa bo'ladi." [2] Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yildagi Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagilarni ta'kidlagan edilar: "Mahalliy ijro organlari, vakillik idoralari hamda mahallaning institutsional asoslarini yanada takomillashtirish lozim. Mahalliy hokimlik va kengashlar bundan 27 yil avval, ya'ni hokimlik instituti joriy etilgan dastlabki paytda qabul qilingan Qonun asosida ishlamoqda. Bu hujjat bugungi islohotlarimiz talablariga mutlaqo javob bermasligini hisobga olib, uni tubdan yangilash zarur...Qonunchilik palatasi va Senat, Vazirlar Mahkamasi bilan birga 2021-yil 1-aprelga qadar mahalliy ijro va vakillik organlari hamda mahalla instituti faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid yangi qonun loyihalarini ishlab chiqsin. Ushbu hujjatlarda hokimlar, ularning o'rnbosarlari va maslahatchilarining vakolat chegarasi, vazifa va funksiyalari aniq belgilanishi lozim". [3] Bu esa o'z-o'zidan O'zbekistonda siyosiy institut sifatida mahalliy kengashlar mustaqilligini ta'minlashda xalqaro huquqiy hujjatlarning tahlilini amalga oshirish muhim hamda dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi.

## ASOSIY QISM

Ushbu maqolada tarixiy yondashuv, hujjatlar tahlili, holat o'rganish (case-study), teoretik va nazariy tahlil, komparativ (solishtirma) tahlil, interdisiplinar yondashuv kabi siyosatshunoslik fani

metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekistonda siyosiy institut sifatida mahalliy kengashlar mustaqilligini ta'minlashda xalqaro huquqiy hujjatlarning tahliliga bog'liq masalalar Z.Istroilova, S.Adilxodjayeva, Sh.Asadov, D.Bekchanov, A.Dadasheva, Sh.Jalilov, G.Ismailova, A.Yo'ldoshev, G.Malikova, A.Mahmudov, S.Muratayev, X.Odilqoriyev, M.Radjabova, X.Ruzmetov, I.Sobirov, A.To'laganov, I.Xamedov, O.Xusanov, A.Babadjanovlar tomonidan, MDH davlatlari miqyosida V.Avseenko, A.Akmalova, G.Atamanchuk, M.Baglay, V.Baranchikov, G.Barabashev, N.Bandar, V.Bocharov, T.Byalkina, O.Kishakovskaya, R.Muxayev, M.Yegorovalar tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa A.Gerbert, M.Jefferi, A.Tompson, U.Donald, V.Smitburg, Jesse Ribbot, Keys Miller Allin Lokner (AQSH), A.Chandler, J.Kingdom, Stiv Parkinson, Rod Latham, Rojer Kemp (Buyuk Britaniya), Karlos Silva Jan Buchek (Shveytsariya), Maleka Banu, Siddik Kamal (Bangladesh), Orapin Sopchokchai (Tailand) tomonidan yetarlicha hamda atroflicha o'r ganilgan.

Avvalo, O'zbekistonda siyosiy institut sifatida mahalliy kengashlar mustaqilligini ta'minlashda xalqaro huquqiy hujjatlarning tahlilini amalga oshirishdan oldin siyosiy institut tushunchasini yoritib o'tishimiz lozim. Xususan, milliy siyosatshunos olimlar X.T.Odilqoriyev va D.X.Razzoqov kategoriya sifatida siyosiy institutlar ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi, muayyan subyektlarning manfaatini ko'zlab ish ko'rvuchi davlat, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy muassasa va tashkilotlar ekanligini nazarda tutadi. [4, 19-b] Shuningdek, boshqa o'rinda, siyosatda ishtirok etish uchun odamlar va ularning jamoalari tomonidan vujudga keltiriladigan ijtimoiy institutlar va tashkilotlarni siyosiy institut deyish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risida xulosaga kelinadi. [4, 93-b] Ya'ni, yuqoridagi nazariy ta'riflardan kelib chiqib, mahalliy kengash bevosita norma ijodkorligi, nazorat, kontrol, tashkiliy-boshqaruv, axborot olish hamda vakillik funksiya hamda vakolatlarini amalga oshirganligi sababli bevosita siyosiy institut sifatida olishimiz mumkin.

Hozirgi kunda dunyoda mahalliy o'zini o'zi boshqarish faoliyatini tartibga soladigan yagona xalqaro-huquqiy hujjat – 1985-yil 15-oktabrda qabul qilingan hamda 1988-yil 1-sentabrdan kuchga kirgan "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish Yevropa xartiyasi" hisoblanadi. Ushbu xalqaro-huquqiy hujjat ratifikatsiya qiluvchi a'zo davlatlar mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining siyosiy, ma'muriy va moliyaviy mustaqilligini kafolatlash majburiyatini qo'yadi. Hozirgi kunga qadar ushbu xalqaro-huquqiy hujjat Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan barcha 46 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Bizning fikrimizcha, mahalliy kengashlar faoliyatini tartibga solishda "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish Yevropa xartiyasi"ning quyidagi o'ziga xos jihatlari mavjud:

Birinchidan, ushbu xalqaro-huquqiy hujjatni qabul qilishdan asosiy maqsadlar aniq belgilanganligi. Xususan, "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish Yevropa xartiyasi"ning

muqaddimasida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari har qanday demokratik rejimning asosini tashkil etishi, fuqarolarning mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishda bevosita to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etishi demokratik tamoyillarga mos kelishi, real vakolatlarga ega bo‘lgan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mavjudligi samarali hamda fuqarolarga yaqin mahalliy boshqaruvni ta’minlashi mumkinligi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni mustahkamlash hamda himoyalash demokratik hamda hokimiyatni nomarkazlashtirish tamoyillariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan qabul qilinayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan. [5] Ya’ni, mahalliy kengashlarning mavjudligi o‘z o‘rnida, demokratik rejimning mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish prinsip sifatida belgilanishi lozimligi. Xususan, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Yevropa xartiyasi”ning 2-moddasiga ko‘ra, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish prinsip sifatida milliy qonunchilik doirasida, imkon darajasida esa davlat konstitutsiyasida tan olinishi lozim. [5]. Xususan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 120-moddasida mahalliy kengashlarning huquqiy maqomi belgilab qo‘yilgan.

Uchinchidan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tushunchasiga ta’rif berilganligi. Xususan, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Yevropa xartiyasi”ning 3-moddasida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish – mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qonun doirasida mahalliy aholi manfaatlaridan kelib chiqqan holda, o‘z ma’suliyati ostida davlat ishlarining muhim qismini tartibga solishi, uni boshqarish qobiliyati va huquqlari ekanligi, ushbu huquqlar erkin, yashirin, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri va umumiyo ovoz berish yo‘li bilan saylangan a’zolardan tashkil topuvchi, o‘zariga hisobot beruvchi mahalliy ijro organlariga ega bo‘ladigan yig‘inlar yoki kengashlar tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan. [5] Lekin, bizning milliy qonunchiligidizda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tushunchasiga ta’rif berilmagan.

To‘rtinchidan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolat doirasi aniq belgilanganligi. Jumladan, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Yevropa xartiyasi”ning 4-moddasiga binoan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining asosiy vakolatlari Konstitutsiya yoki qonun bilan belgilanishi lozim, biroq ushbu norma mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga qonunchilik hujjalaringa muvofiq muayyan maqsadlarda vakolat va majburiyatlarning berilishiga to‘sinqilik qilmaydi. Bundan tashqari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z vakolatlarida istisno qilinmagan va boshqa hokimiyat organi vakolatiga o‘tkazib berilmagan barcha masalalar to‘g‘risida o‘z tashabbuslarini amalga oshirish bo‘yicha mavjud qonun doirasida to‘la erkinlikka egadir. Shuningdek, davlat vakolatlarini amalga oshirish, qoida tariqasida, asosan, fuqarolarga eng yaqin hokimiyat organlariga yuklanishi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining har qanday vakolatlar yoki funksiyalarini boshqa biron-bir hokimiyat organiga o‘tkazish faqatgina belgilangan aniq vazifalarning hajmi va xususiyati, shuningdek, iqtisodiyot va samaradorlik talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim. Shu bilan birgalikda, mahalliy o‘zini

o‘zi boshqarish organlariga berilgan vakolatlar, qoida tariqasida, to‘liq va istisnoli bo‘lishi lozim, ushbu vakolatlar faqatgina qonunda ko‘rsatilgan hollardagina markaziy yoki hududiy hokimiyat organlari tomonidan shubha ostiga olinishi yoki cheklanishi mumkin. Shu bilan birga, markaziy yoki hududiy hokimiyat organlari tomonidan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazilgan vakolatlarni amalga oshirishda imkon boricha ushbu vakolatlarni mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga mahalliy sharoitga moslashtirishda erkinlik berilishi lozim. Eng e’tiborli jihat, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bog‘liq qarorlar qabul qilish jarayonida imkon boricha, ushbu organlar bilan maslahatlashuvlar o‘tkazish lozim.[5] Ya’ni, mahalliy kengashlarning vakolatlari yoki majburiyatları belgilanishda mahalliy kengashlarning ham fikri yoki munosabati olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish amalga oshiriladigan hududlarning chegaralarini himoya qilish nazarda tutilganligi. Xususan, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Yevropa xartiyasi”ning 5-moddasida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish amalga oshiriladigan hududlarning chegaralarini o‘zgartirish, faqatgina tegishli hududlar aholisining fikrini inobatga olgan holda, shuningdek, qonun bilan ruxsat berilgan joylarda referendum o‘tkazish orqali amalga oshirish mumkinligi ko‘rsatilgan. [5] Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-635-son Qonun 20, 27-moddalariga asosan, shaharchalarni, qishloqlarni va ovullarni tuzish hamda tugatish, shuningdek ularning chegaralarini o‘zgartirish tegishli tumanlar hokimlarining iltimosnomalari asosida xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan amalga oshiriladi. [6]

Oltinchidan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tashkiliy tuzilishi va ma’muriy vositalari ular amalga oshiradigan vazifalarga muvofiqligi belgilanganligi. Jumladan, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Yevropa xartiyasi”ning 6-moddasiga binoan, mahalliy o‘zini boshqarish organlari umumiyoq qonun hujjatlaridagi tartiblarni buzmagan holda, samarali mahalliy boshqaruvni ta’minlaydigan va mahalliy talablarga javob beradigan ichki ma’muriy tuzilishini o‘zi mustaqil belgilashi lozim. Shuningdek, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari personal xodimlarining xizmatini amalga oshirish professional kasbiy tayyorgarlik, ish haqi va lavozimiga ko‘tarilishi kabi shartlarni ta’minlaydigan, shaxsiy qadr-qimmatni hosibga olish tamoyillarigan kelib chiqib, yuqori malakali xodimlar sifatida tanlovni himoya qilishga qaratilishi lozim. [5]

Yettingchidan, mahalliy darajada mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlarini amalga oshirish shartlari nazarda tutilganligi. Xususan, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Yevropa xartiyasi”ning 7-moddasida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylangan shaxslar tomonidan o‘zlarining mandatlarini erkin amalga oshirilishi ta’milanishi, ular o‘z mandatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash, boy berilgan daromad yoki bajarilgan ishlar uchun rag‘batlantirish, tegishli ijtimoiy ta’mnot uchun pul mablag‘lari bilan ta’milanishi,

mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylangan shaxslarning vakolatlariga mos kelmaydigan funksiyalar va faoliyat turlari faqat qonun yoki asosiy huquqiy tamoyillar bilan belgilanishi lozimligi ko‘rsatilgan. [5] Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrdagi “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi 706-II-son Qonun 14-moddasida deputat o‘z vakolatlarini ishlab chiqarish yoki xizmat vazifalaridan ajralmagan holda amalga oshirsihi, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari deputatni u o‘z deputatlik vazifalarini bajaradigan vaqtida, uning ish joyini (lavozimini) saqlagan holda, ishdan ozod qilishlari shartligi, deputatlik vazifalarini bajarayotgan vaqtida deputatning o‘rtacha ish haqi saqlanib qolishi belgilangan. [7]. Ko‘rib turganingizdek, ushbu holatda milliy qonunchilik hamda xalqaro hujjat o‘rtasida qaramaqshilik yuzaga kelmoqda.

Sakkizinchidan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati ustidan ma’muriy kontrol belgilanganligi. Jumladan, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Yevropa xartiyasi”ning 8-moddasiga binoan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari ustidan har qanday ma’muriy kontrol faqatgina konstitutsiya yoki qonunda belgilangan tartibda va hollarda amalga oshiriladi. Shuningdek, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari ustidan har qanday ma’muriy kontrol, qoida tariqasida, qonuniylik va konstitutsiyaviy tamoyillarga, shuningdek, yuqori hokimiyat organlari tomonidan yuklatilgan vazifalarni bajarilishida muvofiqlikni ta‘minlash maqsadlariga intilishi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati ustidan ma’muriy kontrol – kontrol qiluvchi organning aralashuvi va uning manfaatlarini himoya qilish ahamiyati nuqtayi nazaridan mutanosiblikni hisobga olgan darajada – amalga oshirilishi kerak. [5] Xususan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 95-moddasida mahalliy davlat hokimiyyati vakillik organlariga o‘z faoliyatini amalga oshirishda ko‘maklashish hamda mahalliy davlat hokimiyyati vakillik organlarining qarorlarini, ular qonunchilik normalariga muvofiq bo‘lmagan taqdirda, bekor qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatining mutlaq vakolatlariga kirishi belgilangan. [8] Ya’ni, bundan ko‘rinib turibdiki, mahalliy kengashlar ustidan ma’muriy kontrol bevosita O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan amalga oshiriladi.

To‘qqizinchidan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari molivaviy manbalari ko‘rsatilganligi. Xususan, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Yevropa xartiyasi”ning 9-moddasida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari milliy iqtisodiy siyosat doirasida, o‘zining zimmasiga yuklatilgan vakolatlarni amalga oshirishga yetarli darajada imkon beradigan o‘z molivaviy manbalarini erkin tasarruf etishi, ushbu molivaviy manbalar ularning konstitutsiya va qonun bilan belgilangan vakolatlariga mutanosib bo‘lishi, ushbu molivaviy manbalarining ma’lum bir qismi qonun hujjatlariga muvofiq, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan stavkalari belgilanadigan yig‘imlar va soliqlar hisobidan to‘ldirilishi, molivaviy manbalar asosini tashkil

etadigan moliyaviy tizimlar mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan vakolatlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan xarajatlarning haqiqiy o‘zgarishlarini qoplay oladigan xilmashil va moslashuvchan bo‘lishi, moliyaviy jihatdan zaifroq bo‘lgan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarini moliyaviy himoya qilish moliyaviy to‘g‘irlash yoki unga tenglashtirilgan, ya’ni notekis taqsimotning oqibatlarini tuzatishga qaratilgan choralarini amalga oshirishni talab qilishi, ushbu tartib-taomillar yoki choralar o‘z vakolatlari amalga oshirishda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni tanlash huquqini cheklamasligi lozimligi, moliyaviy manbalarni qayta taqsimlash mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan kelishilishi lozimligi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga beriladigan subsidiyalar, imkon boricha, muayyan loyihalarni moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi lozimligi, ushbu subsidiyalar mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan o‘z siyosatini tanlash hamda vakolatlarini amalga oshirish erkinligi prinsipiga zarar yetkazmasligi kerakligi, investitsiyalarni moliyalashtirish uchun mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari qonunga muvofiq milliy kapital bozoriga kirish huquqiga ega bo‘lishi nazarda tutilgan.

[5] Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-son Qonun 8-moddasiga ko‘ra, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o‘ziga berilgan yoki qonunchilikka muvofiq o‘zi sotib olgan obyektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to‘liq amalga oshirishi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, mahalliy budgetlarning mablag‘lari va budgetdan tashqari jamg‘armalarining mablag‘lari viloyat, tuman, shahar mulki ekanligi, viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo‘lgan muhandislik infrastrukturasi obyektlari va boshqa obyektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’milot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag‘i hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog‘ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo‘lishi mumkinligi belgilangan. [9] Ya’ni, ushbu huquqiy norma bilan faqatgina mahalliy kengashlarga tegishli bo‘lgan mulk doirasasi chegarasi ko‘rsatilmoqda.

O‘ninchidan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining uyushmalarga birlashish huquqi belgilanganligi. Jumladan, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Yevropa xartiyasi”ning 10-moddasiga binoan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z vakolatlarini amalga oshirish, umumiyl manfaatli vazifalarni bajarish va hamkorlik qilish maqsadida qonun doirasida boshqa mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan birlashish huquqiga ega. Shuningdek, har bir davlatda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining umumiyl manfaatlarni himoya qilish va ularga erishish uchun har qanday uyushmalarga yoki mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining xalqaro uyushmalariga qo‘shilish huquqi tan olinishi kerak. Bundan tashqari, qonunda belgilangan

tartibda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari boshqa davlatlarning mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qilishi mumkin. [5] Lekin, ushbu huquqiy norma bizning milliy qonunchiligidizda o‘z ifodasini topmagan.

O‘n birinchidan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning huquqiy himoyasi nazarda tutilganligi. Xususan, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Yevropa xartiyasi”ning 11-moddasiga binoan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z vakolatlarini erkin amalga oshirish va konstitutsiya yoki milliy qonunchilikda mustahkamlangan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga rioya etilishini ta’minlash yuzasidan sud tomonidan himoyalanish huquqiga ega. [5] Ushbu huquqiy kafolat bizning milliy qonunchiligidizda o‘z aksini topmagan.

## XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, mahalliy kengashlarning quyidagi jihatlarini to‘laroq hamda mukammalroq tartibga solish maqsadida “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Yevropa xartiyasi”ni ratifikatsiya qilishimiz lozim:

- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish prinsip sifatida nazarda tutish;
- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolat doirasini aniq belgilash;
- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish amalga oshiriladigan hududlarning chegaralarini himoya qilish;
- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tashkiliy tuzilishi va ma’muriy vositalari ular amalga oshiradigan vazifalarga muvofiqligi;
- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylangan shaxslar tomonidan o‘zlarining mandatlarini erkin amalga oshirilishi ta’minlanishi, ular o‘z mandatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash, boy berilgan daromad yoki bajarilgan ishlar uchun rag‘batlantirish, tegishli ijtimoiy ta’midot uchun pul mablag‘lari bilan ta’minlanishi;
- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati ustidan ma’muriy kontrol;
- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari molivaviy manbalar;
- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z vakolatlarini erkin amalga oshirish va konstitutsiya yoki milliy qonunchilikda mustahkamlangan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga rioya etilishini ta’minlash yuzasidan sud tomonidan himoyalanish huquqiga ega bo‘lishi.

Zero, ushbu xalqaro-huquqiy hujjatni ratifikatsiya qilish orqali mahalliy kengashlarning siyosiy, ma’muriy va molivaviy mustaqilligini kafolatlash ularning samaradorligini oshirish beqiyos darajada xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-28-son Farmoni, 2024-yil 2-fevral, <https://lex.uz/docs/-6789350>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2017-yil 22-dekabr, <https://president.uz/oz/lists/view/1371>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
4. Odilqoriyev X.T, Razzoqov D.X. (2012) Siyosatshunoslik: Darslik. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi.
5. "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish Yevropa xartiyasi", 1985-yil 15-oktabr, <https://rm.coe.int/european-charter-for-local-self-government-english-version-pdf-a6-59-p/16807198a3>.
6. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi O'RQ-635-son Qonun, 2020-yil 28-avgust, <https://lex.uz/docs/-4973063>.
7. O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi 706-II-son Qonun, 2004-yil 2-dekabr, <https://lex.uz/docs/-436950>.
8. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, 2023-yil 30-aprel, <https://lex.uz/docs/-6445145>.
9. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonun, 1993-yil 2-sentabr, <https://lex.uz/ru/docs/-112170#-121181>.